

ERTAKLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA BOLALAR PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

ADCHTI,

Roman-german va slavyan tillari
fakulteti

25-01 KL guruh Sayfiddinova

Farangiz Mehriddin qizi

Ilmiy rahbar: Kabulova Umida

Sayidmaxamadovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ertaklarning bolalar tarbiyasi va psixologik rivojlanishidagi o'rni yoritiladi. Ertaklarning axloqiy qadriyatlarini singdirish, tasavsvavur va nutqni rivojlantirish, milliy an'analarni yetkazishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ertaklarning bolalar emotsional rivojlanishi, qo'rquv va tashvishlarini kamaytirish, ijtimoiy xulq-atvorni shakillantirishni hamda o'ziga ishonchni oshirishi kabi psixologik ta'sirlari ko'rsatilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *maqol, axloqiy tarbiya, tasavsvavur, nutq rivoji, milliy qadriyatlar, kreativ fikrlash, qo'rquvni yengish, tarbiyaviy ahamiyat.*

Annotation: This article discusses the role of fairy tales in children's education and psychological development. It analyzes the importance of fairy tales in instilling moral values, developing imagination and speech, and transmitting national traditions. Additionally, the article highlights the psychological impacts of fairy tales, including their contribution to emotional growth, reduction of fear and anxiety, formation of social behavior, and enhancement of self-confidence.

Keywords: *fairy tales, child psychology, moral education, emotional development, imagination, speech development, national values, social skills, creative thinking, overcoming fear, educational significance.*

Аннотация: В данной статье рассматривается роль сказок в воспитании и психологическом развитии детей. Анализируется значение сказок в формировании моральных ценностей, развитии воображения и речи, а также в передаче национальных традиций. Кроме того, раскрывается их психологическое влияние: содействие эмоциональному развитию, снижение страхов и тревожности, формирование социальных навыков и повышение уверенности в себе. В статье обосновано, что сказки являются важным фактором формирования личности ребёнка не только с образовательной и культурной, но и с психологической точки зрения.

Ключевые слова: сказки, детская психология, нравственное воспитание, эмоциональное развитие, воображение, развитие речи, национальные ценности, социальные навыки, творческое мышление, преодоление страха, воспитательное значение.

Ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, xalq donish-

mandligi, hayotiy tajribasi va tarbiyaviy qarashlarini o‘zida mujassam etadi. Bolalar

Bolalar ongining shakllanishida ertaklarning o‘rni nihoyatda kattadir. Xalq bekorga

“Bola — ko‘ngil qushi” demagan. Shuning uchun ham ertaklar bola ruhiyatiga eng tez

yetib boradigan tarbiyaviy vositalardan biridir. Ertaklarda ezgulik yovuzlik ustidan

g‘alaba qiladi. Bu esa bolaga halollik, mehnatsevarlik va sabr-toqatni o‘rgatadi.

Xalqimizda “Yaxshilik qil — qaytmasin” degan maqol bor.¹ Ertaklardagi mehribon va

halol qahramonlar aynan shu hikmatni tasdiqlaydi. Ertaklar milliy qadriyatlar,

¹ Bolalar adabiyoti asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2016. – B. 34–56-bet.

udumlar, til boyligi va xalqona donishmandlikni avloddan-avlodga yetkazadi. “El bilgan ertak — elning yuragi” degan ibora ham bejiz emas. Bola ertak orqali o‘z xalqining tarixi va madaniyatini bilib boradi. Ertaklar bolaga turli his-tuyg‘ularni boshdan kechirish imkonini beradi: qo‘rquv, hayajon, quvonch, achinish va umid.

Bu

jarayon bolaning emotsional dunyosini boyitadi. “Ko‘ngilni ko‘ngil qiladi” degan maqol aynan ertakning bola ruhiyatiga ta’sirini ko‘rsatadi. Ertaklar bola psixologiyasiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ular bolaning emotsional dunyosini boyitadi: qo‘rquv, hayajon, umid, achinish, quvonch kabi hislarni boshdan kechirish

imkoniyatini beradi. Bu esa emotsional intellektning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Qahramonlarning dev, ajdarho yoki boshqa yovuz kuchlarni yengishi bolaga jasorat

bag‘ishlaydi. Xalq orasida “Jasorat — yengilmas qurol” degan maqol bor, ertaklar esa

buni real misollar orqali bolaga yetkazadi. Bola qahramon bilan birga qo‘rqadi, hayajonlanadi va oxirida g‘alabadan bahramand bo‘ladi. Shu tariqa, ichki qo‘rquvlarni

yengish, o‘ziga ishonchni mustahkamlash jarayoni yuz beradi.

Ertaklar ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Bola

do‘stlik, yordam, mehr-oqibat, hurmat kabi qadriyatlarni ertak qahramonlari orqali

o‘zlashtiradi. Bu borada “Do‘st boshiga — dard kelsa bilinadi” degan maqolning mazmuni ertak voqealari bilan uyg‘unlashadi. Shuningdek, ertaklar tasavvur va kreativ

fikrlashni kuchaytiradi. Sehrli joylar, g‘aroyib qahramonlar, noodatiy vaziyatlar bolaning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Xalqimizning “O‘ylagan — o‘zar” degan

gapida kreativ fikrlashning mohiyati aks etadi.

Ertaklarni tinglagan bola oddiy qahramonning mehnat va jasorat bilan g'alabaga erishishini ko'rib, o'z imkoniyatiga ishona boshlaydi.

Ertaklarning bolalar ruhiy rivojlanishidagi o'rni nafaqat tarbiyaviy, balki psixologik

jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liq. Psixologlar fikriga ko'ra, ertaklar bolaga

dunyoni tushunishning eng sodda, ammo eng samarali modelini yaratib beradi.

Bola

hali real hayotdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarni anglab yetmagan bo'lsa-da,

ertaklardagi obrazlar va voqealar orqali yaxshilik, yomonlik, adolat, muhabbat, yordam va xiyonat kabi tushunchalarni sezilarli ravishda osonroq qabul qiladi.

Chunki

ertaklar hayotni ramziy shaklda, bolaga mos soddalashtirilgan ko'rinishda beradi.

Ertaklarning yana bir muhim jihati shundaki, ular bola tafakkurida sabab-oqibat bog'liqligini shakllantiradi. Bola ertakni tinglar ekan, qahramonning har bir harakati

qanday oqibatga olib kelishini kuzatadi, shunda u hayotda ham har bir ishning javobi

bo'lishini anglay boshlaydi. Bu esa keyinchalik to'g'ri qaror qabul qilish, mas'uliyatni

his qilish kabi sifatarning shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, nohaq ish qilgan qahramon jazolanishi, yaxshi ish qilganining esa mukofotlanishi hayotiy tajribaga yo'l

ochadi. Bolalar adabiyoti asoslari. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2016. – B. 34–56-bet.²

Shuningdek, ertaklar bolalarda tinglash, eslab qolish va qayta hikoya qilish

² Bolalar adabiyoti asoslari. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2016. – B. 34–56-bet.

ko'nikmalarini rivojlantiradi. Psixologlar bu jarayonni nutqning asosiy poydevori deb hisoblaydi, chunki bola ertakni eslab qolish uchun diqqatini jamlaydi, keyinchalik uni qayta aytish orqali mantiqiy fikrlashini mustahkamlaydi. Bu jarayon bolaning xotira, tafakkur, tasavvur va mulohaza qobiliyatlarini yaxshilaydi.³

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ertak tinglab ulg'aygan bolalarda tasavvur boy, ijodiy fikrlash kuchli, mustaqil qaror qabul qilish esa osonroq kechadi. Ular ijtimoiy muloqotga tez kirishadi va atrofdagi voqealarga nisbatan yanada sezgir bo'lishadi. Chunki ertaklar bolaga tabiatni, hayvonlarni, odamlar munosabatlarini ramziy tarzda tushuntirib, ularni yaxlit bir dunyo sifatida qabul qilishga o'rgatadi. Shu bilan birga, ertaklar bolaning xulq-atvorini boshqarishga yordam beradi. Bola ertak qahramonlari orqali qanday xatti-harakatlar ijobiy natija berishini, qaysilari esa salbiy oqibatlarga olib kelishini bilib oladi. Bu jarayon unga real hayotda ham o'zini to'g'ri tutish uchun asos yaratadi. Ertaklar oila ichidagi mehr-muhabbat rishtalarini ham mustahkamlaydi. Katta yoshdagilar tomonidan bolaga ertak o'qib berish jarayonida bola o'zini xavfsiz, qo'llab-quvvatlangan va e'tiborga loyiq his qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 . Bolalar adabiyoti asoslari. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2016. – B. 34–56-bet.
- 2 . Qosimova, N. Bolalar adabiyoti va uning o'qitilishi. – Toshkent: Fan, 2018. – 78–102-bet.
- 3 . Arxiv . Uz

³ Arxiv . Uz